



ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI TALQINI

Sarmonov Odilboy Muhammadivich

Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annatatsiya: *Yozuvchi Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romanida uzoq tarix, buyuk iste’dod sohibi yashagan, ijod qilgan davr muhiti juda mukammal tarzda basdiiy taqilin etilgan. Asarda bir qator tarixiy shaxslar obrazining badiiy in’ikosini kuzatar ekanmiz, ijodkor davr va muhitni juda yaxshi anglagan va badiiy asar sujetiga singdirgan. Mir Alisher Navoiy, Husayn Bayqoro kabi etakchi obrazlarning ruhiy-ma’navi olami bilan bir qatorda, botiniy olami ham o’zining badiiy ifodasini topganligi asoslandi.*

Kalit so’zlar: *badiiylilik, hayotiylik, talqin, izchillik, matiqiylik, obraz, prototob obraz, ijodkorlik, mahurat.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В РОМАНЕ ИСАЖОНА СУЛТАНА «АЛИШЕР НАВОИЙ»

Сармонов Одилбой Мухаммадиевич

Независимый исследователь

Гулистанского государственного университета

Аннотация: *В романе писателя Исажона Султана «Алишер Навой» прекрасно изображена среда эпохи, в которой жил и работал великий талант. Наблюдая за художественным отражением образа ряда исторических личностей в произведении, мы видим, что автор прекрасно понимал эпоху и окружающую среду и включил их в сюжет произведения. Доказано, что наряду с духовно-нравственным миром главных героев, таких как Мир Алишер Навой и Хусейн Байкара, внутренний мир также нашел свое художественное выражение.*

Ключевые слова: *мастерство, живость, интерпретация, последовательность, логика, образ, прототип образа, творчество, искусство.*

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF A HISTORICAL PERSON IN ISAZON SULTAN’S NOVEL “ALISHER NAVOIY”

Sarmonov Odilboy Muhammadievich

Independent researcher of Gulistan State University





Abstract: *In the novel “Alisher Navoiy” by the writer Isajon Sultan, the environment of the era in which the great talent lived and worked is perfectly depicted. As we observe the artistic reflection of the image of a number of historical figures in the work, the creator understood the era and environment very well and incorporated them into the subject of the work of art. It was proved that along with the spiritual and moral world of leading characters such as Mir Alisher Navoiy and Husayn Bayqara, the inner world also found its artistic expression.*

Keywords: *artistry, vitality, interpretation, consistency, logic, image, prototype image, creativity, skill.*

Jahon adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, tarixiy shaxs obrazini yaratish uzoq tarixiy jarayonni bosib o‘tganligini alohida qayd etish lozim. Chunki tarixni, tarixiy shaxslar obrazini yaratish ijodkordan katta mas’uliyatni, tafakkurni, dunyoqarashni talab etadi. Ijodkor o‘tmish tarixini, o‘zi yaratmoqchi bo‘lgan shxs davrini, tarixiy jarayonlarini, ziddiyatu kurashlarini, ma’naviy olamdagi o‘zgarishlarni anglash va tarix haqida asar yaratishga imkon beradi.

Dunyo adabiyotshunosligida inson hayoti va davr ziddiyatlarining odamzod dunyoqarashiga ta’siri, buyuk mutafakkirlar umr yo‘lining oddiy odamlar turmush tarzidan mutlaqo farq qilishi kabi masalalarning epik tasvirda aks etish tamoyillariga alohida diqqat qaratilmoqda. Shaxs kamoloti yoki zavoli, jamiyat taraqqiyoti yoki tanazzuli, ezgulik va yovuzlik, ma’rifat va jaholat, erk va eraksizlik o‘rtasidagi kurash, bu jarayonda inson dunyoqarashi, ruhiyati va e’tiqodining o‘rni kabi masalalarning epik asarlardagi tasviri qonuniyatlariga tobora chuqurroq e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbek adabiyotshunosligida epik tasvir va ijodkor badiiy niyati, yozuvchi estetik ideali va uning ifoda usullari, tarixiy kolorit va qahramon, tarixiy va badiiy haqiqat munosabatlari yuzasidan qimmatli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Epik turning personaj ruhiyati tasviridagi o‘rni, asar qahramonlariaro va ular bilan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi ziddiyatlar, nasriy asar syujeti va kompozitsiyasining tarixiy shaxs obrazi talqini qonuniyatlari izchil tadqiq qilinmoqda.

Keyingi yillarda yaratilgan tarixiy romanlar orasida Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani buyuk mutafakkir hayotiga yangicha yondashilgani jihatidan alohida ajralib turadi. “Alisher Navoiyning bebaho ijodiy merosi haqli ravishda jahon adabiyoti daholarining buyuk asarlari bilan bir qatorda turishi bizga cheksiz g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Ayniqsa, mutafakkir ajdodimizning turli xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustahkamlash, bashariyatning yorug‘ kelajagini birgalikda qurishga chorlaydigan g‘oya va qarashlarining ahamiyati hozirgi tahlikali davrda tobora ortib bormoqda”.¹ Shu nuqtai nazardan, Alisher Navoiy obrazi haqqoniy yoritilgan epik asarlarni ilmiy baholash buyuk mutafakkir g‘oyalarini jamiyat hayotiga tatbiq etishning asosiy shartlaridandir. Epik turdagi o‘zgarishlar, tasvir tamoyillari va ijodkor uslubidagi yangilanishlar adabiyotshunoslik mezonlariga ham muayyan tahrirlar



kiritishni taqozo etyapti. Bu esa epik tasvirga xos xususiyatlarni yangicha tamoyillar asosida o'rganishning dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

Epik tasvir lirik va dramatik talqinning farqi faqatgina epik ko'lam bilangina kifoyalanmay, ijodkorning badiiy nasr kanonlariga rioya etishi zaruratiga ko'ra ham belgilanadi. Epik asarni qahramonlar portreti va xarakteri tasviridan ayri tasavvur etib bo'lmaydi. Negaki, "Hayot adabiyotning predmetidir, asosidir, ustunidir, yuragidir" [1, 35-bet]. Adabiyot uchun hayotni tasvirlash imkonini beruvchi asosiy vositalardan biri bu – portret. Obrazli qilib aytganda, portret – epik tasvirning jon tomirlaridan biri. Qahramon va hattoki muallif ruhiyati tasvirini portretdan ayri tasavvur etish qiyin ekani sababi shunda. "Alisher Navoiy" romanida portret yaratishga puxta tayyorgarlik bilan kirishilgan bo'lib, yozuvching o'ziga xos individual yondashuvi yetakchilik qiladi. Eng avvalo, ta'kidlash joizki, tarixiy roman yaratish jarayonida muallif uchun bir qancha ijodiy mushkulliklar mavjud:

Birinchidan, tarixiy romanlardagi bosh qahramonlar portreti deyarli hamisha aniq konsepsiyaga asoslanadi. Muallif tarixiy shaxs portretini yaratar ekan, boshqa ijodkorlarni takrorlamasligi kerak. Bunda o'ziga xos individual ijodiy yondashuv taqozo etiladi. Aks holda asarning badiiy saviyasiga putur yetadi, portret tasviri o'quvchiga yangilik bera olmaydi. Tarixiy shaxs har bir asarda alohida portret orqali betakror qiyofada namoyon bo'lishi lozim. Ikkinchidan har bir asardagi qahramon portreti muallif uslubini, ijodiy metodini, mahoratini o'zida aks ettirgani holda, o'quvchi ko'z o'ngida yashab qolishi zarur. Uchinchidan, portret ijodkor badiiy niyatiga muvofiq tasvirlanishi, aniq estetik konsepsiyaga xizmat qilishi kerak. Asardagi portretlarni hayotiy asosga egaligiga ko'ra tarixiy hamda badiiy to'qima portretlarga ajratish mumkin.

Tarixiy portretlarga faqatgina bir ijodkor murojaat etmaydi. Masalan, Temur, Bobur, Navoiy kabi tarixiy shaxslar portreti eng ko'p tasvirlangan. Ushbu portretlarni yaratishda tarixiy haqiqatga tayanilgan. Ularning har birida muallifning shaxsiy imzosi, uslubi, o'ziga xos tafakkur tarzi mavjud. "Portret – personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri"⁶. Isajon Sulton tarixiy portretlarni yaratishda qisqalik, aniqlik, ravonlik va badiiylikka u qadar berilmagan holda konkretlikni tanlaydi.

Adabiyotshunoslar portretning ikki turi mavjudligiga urg'u berishadi: statik va dinamik. Statik portretda "...personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to'xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday portretlar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada beriladi" [2, 185-bet]. Isajon Sulton romanda statik portretga deyarli murojaat etmaydi. U syujetni to'xtatib turgan holda, asarning biror bir o'rnida portret tasvirini bermagan. Adib asosan dinamik portretlarga murojaat etadi. Ma'limki, dinamik portretda tasvir tafsilotli berilmaydi. Asar voqealari



va qahramonlar muloqoti davomida personaj qiyofasiga tegishli alohida belgilar zikr etiladi. Dunamik portret unsurlari remarkalar – muallif izohlari orqali ifodalanib, qahramonning voqelik tasviri paytidagi kechinmalarini his etish imkonini beradi. Bu usul tarixiy portretning yanada ishonchli va aniq bo‘lishiga yordam beradi.

Syujet voqeasi davom ettirilgani holda, bola Alisher qiyofasiga yozuvchi bir qadar to‘xtalib o‘tadi. Yana bir o‘rinda asarning bosh qiyofasi bo‘lmish Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytish portretini shunday yaratadi: Qush uchar balandlikdan qaralsa, bu kichik karvondagilar orasida pishiq gavdali, mayda qavima to‘n kiyib, ixcham salla o‘ragan yigitni ham ko‘rsa bo‘lardi. U Alisher Navoiy edi. Ko‘rinib turganidek, portret juda qisqa va aniq. Muallif portret yaratayotganida eng muhim deb hisoblagan xususiyatlarga e‘tibor qaratadi. Qisqa tasvirda qahramon haqida aniq tasavvur hosil qilishga intiladi. Eng muhimi esa, portret yaratayotganida uning ruhiy holati, yashash sharoiti, syujetning qanday borayotgani – barcha voqelikni inobatga olgani holda portret yaratadi va shu vaziyatlarga mos bo‘lgan, portretni yoritishga yordamchi omil bo‘lib xizmat qilgan badiiy tasvir vositalaridan mahurat bilan foydalanadi.

Jumladan, yuqorida keltirilgan Alisher Navoiyning Samarqanddan Hirotga qaytish jarayonidagi portretini yaratarkan, portretni peyzaj bilan uyg‘unlashtiradi va bu holat badiiylikni ta‘minlaydi. Tarixiy portretlarni yaratish jarayonida yozuvchi asosan aniqlik va qisqalikka rioya qilgan deya ta‘kidlagan edik. Ayni shu holatga badiiylikni qo‘shish uchun, portret tasviri quruq va hissiz bo‘lib qolmasligi uchun muallif badiiy tasvir vositalariga katta ahamiyat qaratadi. Navoiyning yuqorida keltirilgan portret tasvirini endi badiiy tasvir vositasi peyzaj bilan birgalikda qayta mutolaa qilamiz: Qush uchar balandlikdan qaralsa, bu kichik karvondagilar orasida pishiq gavdali, mayda qavima to‘n kiyib, ixcham salla o‘ragan yigitni ham ko‘rsa bo‘lardi. U Alisher Navoiy edi. Noz-u ne‘matini ayamagan, zumrad kuzi, nuqra qishi, zabarjad bahori-yu, simobiy yozi ila har turluk ne‘matlarini beminnat tutgan Samarqand Hiriya fasohat bilimlarini olgan, qora kunlarida cheriklik qismatiga rozi bo‘lib kelgan Alisherni o‘z yurtiga olim qilib qaytarmoqda edi. Ana endi o‘quvchida tamomila yangi taassurot, yangicha kayfiyat hosil bo‘ladi. Qaysidir ma’nodo portret endi yanada to‘liqroq bo‘lgandek ko‘rinadi, estetik ta’siri ortadi. Bu holatni muallifning portret yaratish jarayonidagi o‘ziga xos yangicha yo‘li, usuli deyish mumkin. Tarixiy portretlarni aniq va qisqa tasvirlagani holda, ularga badiiy tasvir vositalari orqali badiiylikni yuklaydi. Yana bir tarixiy shaxs, Abulxayrxon portretini yaratish jarayoniga ham deyarli yuqorida ta‘kidlaganimiz kabi usuldan foydalanadi. Navoiy portretini yaratishda dastavval Navoiy portretini, keyin peyzajni keltirib badiiylikni hosil qilgan bo‘lsa, Abulxayrxon portretini yaratishda ayni shu usulning teskarisidan foydalanadi. Eng avval, qisqagina peyzaj bilan o‘quvchi ko‘z o‘ngida o‘sha lahzaning qiyofasini gavdalanirib keyin portret yaratadi: Quدراتli Temuchin avlodiga mansub

Abulxayrxonshu kez ko'z yetmas olislarga yaslanib ketgan Dashti Qipchoq ovullaridan birida istirohatda edi.

Kitobxon ko'z oldida Dashti Qipchoqning nihoyatda cheksiz, bir tomoni yuksak osmonlarga tutashgan, tabiatning butun qudratini o'zida mujassam etgan keng yaylovlari jonlanar ekan, hali portreti berilmagan Abulxayrxon qudratini, qiyofasini bir qadar anglagandek bo'ladi: Abulxayrxon o'rta bo'yli, yekalari keng, pishiq gavdali, qisq ko'zli kishi bo'lib, kentlarda o'tirmoqni xush ko'rmas, aksar hollarda qo'shin bilan yotib turar, davlat ishlarini ham sayyor holda yuritardi. Uning shaxsiyati va tashqi ko'rinishi uyg'unlikda tasvir etilgan portreti o'quvchini e'tiborsiz qoldirmaydi. Zero, "Personaj portreti – bu uning tashqi ko'rinishi: yuzi, jussasining statik yoki dinamik (yuzdagi ifoda, ayniqsa, ko'z, mimika, xatti -harakat, qiliq va yurishidagi o'ziga xoslik) tasviridir"; personaj libosi – portretning bir qismidir. Portretning tabiiy qirralari badiiy asarda muhim o'rin tutadi. Ular kitobxonda personajning qaysi millatga mansubligi va ijtimoiy kelib chiqishi haqida dastlabki tasavvurlarni uyg'otadi" [3, 9-bet]. Yuqoridagi portretga ham qipchoq hududiga xos ko'rinish, portret yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ayni shu tariqa Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romanida tarixiy shaxslar portretini yaratishda o'ziga xos bo'lgan yangicha usullarni, novatorlikni namoyish etadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, yozuvchi tarixiy obrazlarga ko'proq portret sifatida emas, xarakter sifatida yondashishga intiladi va romanda obrazlarning ruhiyati, ko'ngli, o'y-fikrlari tahlili va tasviri yetakchilik qiladi. Muallif bosh qahramonni va tarixiy obrazlarni badiiy xarakter sifatida o'quvchiga yetkazib berishni ma'qul topadi.

Yozuvchi Xayriddin Sultonov romanga "So'ng so'z o'rnida" maqolasidagi qiyidagi satrlarni alohida qayd etishni lozim topdik: "Shoir yoki adib, tarixiy mavzuda ijod qilishga bel bog'lar ekan, tom-tom kitoblarni, sahifa-sahifa tadqiqot va arxiv materiallarini to'plashi, ularni chuqur o'rganishi tabiiydir. Lekin hamma gap muallif ularning barchasini yuragidan o'tkazishi, olis moziyda sodir bo'lgan voqealarni xuddi o'z ko'zi bilan ko'rib, qahramonlarning gap so'zlarini o'z qulog'ida bilan eshitib turganday haqqoniy yoritib berishi, turli xarakter, fe'l atvorga ega siymolarni "o'z qonidan berib tiriltira" olishida deb o'ylayman" [4, 471-bet].

Darhaqiqat, asosli qayd qilinganidek, uzoq o'tmishni jonli, obrazli darajaga ko'tarish uchun ijodkorning juda katta mehnati, davrni teran anglashi kerakligini ham unitmaslik kerak. Eng xarakterlisi, o'ta murakkab, jigal tarix va tarixiy voqelikni aks ettirishda esa yuqoridagi qarashlarda ilgari surilgan tushunchalar mujassamlashgan bo'lishi tabiiy hol.

Iste'dodli adib, Isajon Sulton Mir Alisher navoiy obrazini mukammal obraz darajasida yaratdiki, bu esa ijodkoming badiiy mahratidan dalolatdir. Adib davr voqeligini, tarixiy shaxslar hayotini mukammal o'rganganligi uchun ham badiiy mezonlarida o'ziga xos talqinlarni namoyon etgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари.
- Тошкент: Yangi asr avlodi, 2011. - Б. 355.
- 2.Қуроноф Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 185.
- 3.Botirova Sh. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy psixologizm. – Qarshi. 2019. – В. 92
- 4.Султонов Х. Сўнгсўз ўрнида. Маълумот учун қаранг: Исажон Султон. Алишер Навоий. Роман. – Тошкент, “Инноватсион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2022. – 476 бет.

